



Typology of languages in the framework of diachronic and synchronic semantics

Farit TLEKTESOV¹

Nukus State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2024
Received in revised form
10 August 2024
Accepted 25 August 2024
Available online
25 September 2024

Keywords:

mythological beliefs,
ideological standard,
analogists,
anomalists,
diachronic lexical semantics,
semantic laws,
phonetic laws,
semasiological and
onomasiological positions,
synchronic semantics.

ABSTRACT

Although semantics, as a distinct field of linguistics, has existed only since the end of the last century, the question of what constitutes the meaning of linguistic signs has always attracted the attention of linguists. Such interest is natural, as the relationship between form and meaning in language is one of linguistics's eternal and global problems.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3/S-pp342-347>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Diaxron va sinxron semantika doirasida tillar tipologiyasi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

mifologik e'tiqodlar,
ideologik standart,
analogistlar,
anomalistlar,
diaxron leksik semantika,
semantik qonunlar,
fonetik qonunlar,
semasiologik va
onomasiologik pozitsiyalar,
sinxron semantika.

Semantika tilshunoslikning alohida sohasi sifatida faqat o'tgan asr oxiridan buyon mavjud bo'lsa-da, til belgilarining mazmuni nimadan iboratligi masalasi har doim tilshunoslarning e'tiborini jalb qilgan. Bunday qiziqish tabiiy, chunki tildagi shakl va mazmun o'rtasidagi munosabat tilshunoslikning abadiy va global muammolaridan biridir.

¹ Doctoral Candidate, Nukus State Pedagogical Institute.

Типология языков в рамках диахронической и синхронической семантики

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

мифологические
верования,
идеологический стандарт,
аналогисты,
аномалисты,
диахроническая
лексическая семантика,
семантические законы,
фонетические законы,
семасиологические и
ономасиологические
позиции,
синхроническая
семантика.

Несмотря на то, что семантика как отдельная область лингвистики существует лишь с конца прошлого века, вопрос о том, что составляет содержание языковых знаков, всегда привлекал внимание лингвистов. Такой интерес естественен, так как отношение между формой и содержанием в языке является одной из вечных и глобальных проблем лингвистики.

Turli tillarning mavjudligini aniqlashda, ularning so'zlari bir xil ob'ektlar va hodisalarni belgilab, qadimgi olimlar turli tillardagi so'zlarning o'zaro bog'liqligini tushunishga va tushuntirishga harakat qilishgan. Demokritning izdoshi va shogirdi Diodor Sikiliy quyidagicha mulohaza yuritgan: "Ibtidoiy odamlar hayotlarini uyushmagan va yovvoyi hayvonga o'xshab yashagan, o'tloqqa tarqalib, mazali o'tlar va daraxt mevalari bilan oziqlanganlar. Yirtqich hayvonlar hujum qilgandagi ularning bir-biriga yordam berish zarurati ularni mulqotga majburlagan va ular qo'rquvdan bir joyga yig'ilib, asta-sekin bir-birlarini tanib olishni boshlaganlar. Ularning ovozi hali ma'nosiz va noaniq bo'lgan, lekin asta-sekin ular aniqlangan so'zlarga o'tib, har bir narsaga belgi belgilab, o'zlari uchun tushunarli bo'lgan ifodalarni yaratganlar. Butun dunyoda bunday uyushmalar bo'lganligi sababli, har bir xalq o'z so'zlarini tasodifan yaratgan va shuning uchun tillarning xilma-xilligi paydo bo'lgan, birinchi uyushmalar esa keyinchalik qabilalarga asos solgan" [Freudenberg 1936: 33]. Bu yerda tilning yunon-lotinka nazariyasi alohida o'rin tutadi. Unga asos bo'lib xizmat qilgan Rim madaniyati aslida zullisonayn edi. U ikki tildan – yunon va lotin tillaridan iborat bo'lib, ular bir xil mifologik e'tiqodlar bilan bog'liq ideologik standart va milod boshidagi umumiy siyosiy tarixga ega [Amirova, Olxovikov, Rozhdestvenskiy 1975: 95, shuningdek, Lyons 1978: 25-28]. Bu ma'naviy madaniyatni o'zlashtirish uchun yunon va lotin tillarini bilish zarur edi. Yunon-lotin madaniyat dunyosida tilning bu xususiyati, masalan, analogiya va anomaliya haqidagi mashhur bahsda aks etadi. Yunon va lotin tillarining qo'llanilish jarayonini kuzatib, qadimgi faylasuflar va olimlar ularning har birining xususiyatlarini payqashlari kerak edi. Lotin tilining qat'iy tuzilishi tilning asosiy qoidalarini mantiq qonunlariga asoslangan degan fikrni ilgari surdi. Bu "analogistlar"ning pozitsiyasi edi. Yunon tilida esa ko'plab istisnalar mavjud edi, bu esa qadimgi faylasuflar fikriga ko'ra, til tarkibiy tuzilishidagi betartiblik tabiati ustunligi haqidagi nazariyani qo'llab-quvvatlardi. Bu nuqtai - nazarni "anomalistlar" himoya qilgan. "Analogistlar" va "anomalistlar" o'rtasidagi til tartibga solinganmi yoki yo'qmi degan bahs qadimgi Yunonistonda hal qilinmagan va o'sha paytda hal qilinishi ham mumkin emas edi. Biz uchun esa bu bahsning asosi qadimgi olimlar tomonidan sezilgan ichki va tillararo farqlar ekanligi muhimdir.

O'rta asrlarda tillarning mazmuniy sohasini taqqoslash, odatda, grammatik hodisalar tahliliga, yoki bir xil narsalarni turli tillarda ifodalovchi so'zlarning majoziy ma'nolarini taqqoslashga, shuningdek, albatta, ikki tilli va ko'p tilli lug'atlar tuzish jarayoni bilan bog'liq edi.

Biroq faqat Mishel Brealning "Essai de sémantique" kitobi nashr etilgandan so'ng [Breal 1897], til birliklarining ma'nosi haqidagi fan mustaqil lisoniy intizom sifatida maqomga ega bo'lib, tez va intensiv rivojlana boshladi, yangi g'oyalar, yondashuvlar va ilmiy tahlil metodikalari bilan boyidi.

Yangi tilshunoslik sohasidan bir necha o'n yillar davomida rivojlanib kelgan birinchi yo'nalish diaxron leksik semantika edi [Lyons 1991: 1, 4]. Diaxronik semantikada asosiy vazifa so'z ma'nolarining o'zgarishini kuzatish, bu ma'nolarni tasniflash va semantik qonunlarni izlash edi. Tilning fonetik qonunlaridan tashqari, so'zlarni o'zgartirishni tartibga soluvchi "mushohada" qonunlari mavjudmi degan savol birinchi marta M. Brealning asarida ko'tarilgan. Bu savolga ijobiy javob berib, muallif mazkur qonunlarning harakat xarakteri bo'yicha fonetik qonunlardan keskin farq qilishini ta'kidlaydi, uning fikricha qoidalar unchalik qattiq emas, asosan turli xil psixologik sabablarga bog'liq va tilning ma'no tomonining rivojlanishida umumiy yo'nalishlar sifatida belgilanishi mumkin [Breal 1976: 3]. Ushbu qonuniyatlarning mavjudligini ta'kidlab, Breal tilshunoslikda yuzaga kelayotgan yangi sohaning o'rganish ob'yektini, uning qiziqish va vazifalar doirasini belgilaydi. Shu tariqa, M. Breal o'zi ajratgan tilshunoslik sohasini leksik birliklar ma'nolarining o'zgarishining sabablari, mohiyati va natijalari haqidagi fan sifatida belgilaydi (bu borada boshqa tadqiqotchilar ham atroficha mulohaza yuritishgan jumladan, Shaff) [Shaff 1963: 30]. Shu bilan birga, diaxronik semantika boshidanoq turli tillar faktlarini taqqoslash tahliliga asoslangan holda shakllanganligi haqidagi qat'iy qarash o'z aksini topgan. U metaforlar tarkibi yordamida "xalq ruhini" aniqlash imkoniyatini rad etadi, bir guruh tillarda umumiylikni ko'rsatadi. Misol sifatida lotin tilining (va ba'zi boshqa roman tillarining) obrazli assotsiatsiyalari keltiriladi: aql o'tkirlik bilan bog'liq, ahmoqlik esa aksincha, biror narsaning to'g'ridan-to'g'ri harakatsizligi bilan bog'liq; salbiy xususiyatga ega belgilar odatda "yengil", ijobiy xususiyatli belgi hamda tushunchalar narsa esa "vaznli" bo'ladi. Mazkur mulohazalarni muqoyasa qilinayotgan tillar doirasida ko'rib chiqish quyidagi parallel obrazlarga olib keladi ingliz tilida: frivolous claim, powerful argument, witty remark, stupid stubbornness; va qoraqalpoq tilida: yengil o'ylamoq (salbiy), bosiq mulohaza qilmoq (ijobiy).

K. Reyzig M. Breal kitobi nashr etilishidan oldin so'zlarning ma'nosini o'rganishni semasiologiya deb atashni taklif qilgan edi. Biroq Reyzig so'zni grammatik birlik sifatida ko'rib chiqadi, shuning uchun u etimologiyani (so'z shakli haqidagi ta'limot), sintaksisni (so'zning boshqa so'zlar bilan birlashishi haqidagi ta'limot) va semasiologiyani (so'zning ma'nosi haqidagi ta'limot) grammatika deb hisoblaydi [Reisig 1839: 18] va shu tariqa, so'zlarning ma'nosi haqidagi ta'limotning mustaqil ilmiy yo'nalish sifatidagi maqomini tan olmaydi.

Breal tomonidan asos solingan diaxronik semantika tamoyillari XX asrning dastlabki o'n yillarida ham semantik tadqiqotlarning yo'nalishi va mazmunini belgilagan. J. Vandriesning 1914 yilda tugallangan, ammo birinchi jahon urushi munosabati bilan o'n yil keyin nashr etilgan "Til" kitobida tilning leksik tarkibi bilan bog'liq masalalarga uchta bob bag'ishlangan, ulardan ikkitasida ya'ni "So'z ma'nosi qanday o'zgaradi" va "Tushunchalar qanday o'z nomlarini o'zgartiradi" boblarida semasiologik va onomasiologik

pozitsiyalardan soʻzlarning "taqdiri" turli tillarda bir xil tilning lugʻatini bir-biridan uzoq ikki davrda taqqoslash asosida tahlil qilinadi. Diaxronik taqqoslash tahlili leksik-semantik birliklari X. Xatzfeld kitobida ham keltirilgan [Hatzfeld 1928]. Shuni taʼkidlash kerakki, bir tomondan, semantik xarakterdagi taqqoslash tadqiqotlari semantika fani shakllanishidan oldin ham olib borilgan [Brinkmann 1878, Darmesteter 1887], boshqa tomondan, soʻz maʼnolarining rivojlanishi va oʻzgarishi tarixi tadqiqotchilari koʻpincha bir til materiallari bilan cheklangan. Erdmann kitobida diaxronik xarakterdagi kuzatuvlar bilan bir qatorda soʻzlar va ularning maʼnolarini sinxron tahlil qilish imkoniyatlari haqida koʻplab qiziqarli fikrlar mavjud [Leisi 1985: 23]. Semasiologiya muammolari boʻyicha rus tilshunosligida F.F. Fortunatov shogirdi va izdoshi M.M. Pokrovskiy shugʻullangan. Pokrovskiy "tilning qonuniy rivojlanishi hech qanday shubha ostida emas" va "tilni toʻliq oʻrganish vositasi - unga qarindosh boʻlgan boshqa tillarning maʼlumotlarini ratsional taqqoslashdan iborat boʻlgan qiyosiy metoddir" deb hisoblaydi [Pokrovskiy 1959: 18]. Oʻzining bir qancha asarlarida, sanskrit, yunon, nemis, fransuz, rus va boshqa tillarning keng materiallarini jalb qilgan holda, M.M. Pokrovskiy soʻz maʼnolarining turli oʻzgarishlarini puxta kuzatadi. Ushbu tadqiqotlar natijasida turli tillar uchun semantik sohaning rivojlanishida baʼzi umumiy qonuniyatlarning shakllantirilishiga erishadi. Avvalo, uning fikriga koʻra, soʻzlarning semasiologik tarixi madaniy-tarixiy sabablari oʻxshash boʻlgan tillarda oʻxshash. Koʻpgina misollar qatorida olim quyidagi holatni misol qilib keltiradi. Maʼlumki, barcha xalqlar ham stol hamda taom tushunchalarini oʻzaro ajratmagan va ajratmaydi, baʼzi sharq xalqlarida mehmonlar oldiga taom idishi taxtasi yoki patnisi bilan qoʻyiladi, yoki idish toʻla patnis hali ham yerga qoʻyiladi mana shunday madaniy hodisa kuzatilgan xalqlarda bu ikki tushuncha bir soʻz bilan ifodalanadi. Qoraqalpoq va oʻzbek xalqlarining mushtark madaniy qadriyatlarida bu holatni dasturxon misolida kuzatish mumkin. Masalan, "Mehmon, dasturxonga qarang, u – bu narsa yeb oʻtiring". Madaniy-tarixiy shartlar taʼsiri bilan tushuntirib boʻlmaydigan bir qator faktlarni Pokrovskiy turli xalqlarda assotsiatsiyalar psixologik jarayonining oʻxshashligi bilan tushuntiradi.

Pokrovskiy soʻzlarni "tasavvurlar sohalari" boʻyicha tizimlashtiradi, bu termin ostida "bizning hayotimizning maʼlum jihatlari yoki tashqi yoki ruhiy dunyoning bir xil hodisalari guruhini anglatishi" degan mulohazani jamlaydi. Olimning taʼkidlashicha, bir xil tasavvurlar doirasiga kiruvchi soʻzlar guruhini oʻrganish zarur, chunki ularning semasiologik tarixida koʻp umumiylik mavjud. Olim buni inson tasavvuri yangi mulohaza yoʻnalishini yaratish bilan bir qatorda, allaqachon yaratilgan yoʻnalishdan ham foydalanishini qayd etadi: agar tilda biror umumiy taqqoslash oʻrnatilgan boʻlsa, u keyinchalik taqqoslangan narsalarning alohida tafsilotlariga ham tarqalishi mumkin. Shunday qilib, Pokrovskiy semasiologik jarayonlarning qonuniyatlarini nafaqat tildan tashqaridagi sabablar bilan, balki tilning ichki tuzilishini tashkil etish xususiyatlari bilan ham bogʻlaydi. Turli tillar diaxronik semantikasida muqobil mosliklarni qidirish ayni tillarga xos soʻzlarning oʻzaro oʻxshash rivojlanish yoʻllarini qidirish sifatida talqin etiladi.

XX asrning 30-yillarida strukturalizm gʻoyalari taʼsiri ostidagi, diaxroniyaga nisbatan sinxroniya ustunligini taʼkidlaydigan, zamonaviy tillarning mazmuniy sohasini oʻrganadigan tadqiqotlar paydo boʻla boshladi. Sinxron semantika asosiy eʼtiborini alohida soʻzlarning maʼnolarini, shuningdek, leksik-semantik tizimdagi maʼnolar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni oʻrganishga qaratadi. Bu davrda sinxroniya nuqtai - nazaridan bir nechta til materiallarini tahlil qiluvchi ayrim asarlarda zamonaviy kontrastiv tadqiqotlarning kurtaklari koʻrinib turadi. Bunday ishlarga Sharl Ballining "Umumiy tilshunoslik va fransuz

tili masalalari" kitobi kiradi[Bally 1932]. Unda muallif fransuz tili bilan solishtirishda nemis tilini tasvirlab, har bir tildagi ilgari tilshunoslar e'tiboridan chetda qolgan xususiyatlarni aniqlaydi. Taqqoslash jarayonida u "tipik" til xususiyatlariga alohida e'tibor beradi. Biroq semantik tadqiqotlarda sinxron yondashuv fonologik yoki grammatik tadqiqotlarda bo'lgani kabi keng qo'llanilmagan. Aslida faqat Ulman asarlarida strukturalizmning asosiy qoidalari to'liq va izchil amalga oshirilgan. Ulman tilshunoslikning zamonaviy rivojlanishida umumiy yo'nalishdan semantikaning chetda qolganligini tushuntiradi: "Lug'at fonetik va grammatik vositalarni tavsiflashda qo'llaniladigan usullar yordamida aniq va to'liq tavsiflashga imkon bermaydi. Tilning fonetik va grammatik vositalari miqdor jihatdan cheklangan va qattiq tizimlashtirilgan; ular asosan, garchi to'liq bo'lmasa ham, tashqi ta'sirlarga duchor bo'lmaydi. Lug'at esa cheksiz miqdordagi elementlardan iborat noaniq bir massadir; uning chegaralari noaniq va aniqlanishi qiyin; lug'atning eng xarakterli xususiyati yangi so'zlar va yangi ma'nolar hisobiga cheksiz kengayish qobiliyatidir...". U shuningdek, sinxron semantikaning shakllanishiga katta hissa qo'shgan uchta muhim omilni ta'kidlaydi, ular:

a) ideologik lug'atlar tuzish, bu esa tilning leksik-semantik tizimining ichki tuzilishini tahlil qilish va so'z ma'nolarini tasniflashning ba'zi umumiy tamoyillarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi;

b) leksik-semantik tizimni tahlil qilish uchun semantik maydonlar nazariyasini qo'llash, bu esa, garchi lug'atning kichik bo'laklarida bo'lsa ham, uning tuzilmaviy tavsiflash imkoniyatlarini namoyish etadi;

v) tilning semantik tuzilishidagi xarakterli xususiyatlar va tendentsiyalarni aniqlash maqsadida uni boshqa tillar bilan taqqoslash orqali kontrastiv tahlil metodini qo'llash. Bunday tahlilga Ulman yuqorida tilga olingan Sh. Balli kitobini misol qilib keltiradi va bu usulning ahamiyatini ta'kidlaydi, o'sha davrda boshqa usullardan kamroq ishlatilgan va izchil bo'lmagan, ammo boshqa usullarga xos cheklanganlikdan xoli bo'lgan.

"Deskriptiv semantika va lisoniy tipologiya" maqolasida muallif til lug'at tarkibining semantik tuzilishini tavsiflash uchun mezonlar to'plamini taklif qiladi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, ular quyidagilardir:

- 1) motivlangan va motivlanmagan so'zlar ulushi;
- 2) maxsus va umumiy atamalar ulushi;
- 3) hissiy bo'yoqdorlikni yetkazishning o'ziga xos usullari;
- 4) sinonim resurslarini tashkil etish va taqsimlash;
- 5) polisemiyaning nisbiy chastotasi, unga xos shakllar; uning natijasida kelib chiqadigan noaniqlikni bartaraf etish vositalari;
- 6) omonimiyaning nisbiy chastotasi; omonimlar o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish vositalari;
- 7) tildagi so'zlarning semantik avtonomiyasi.

Ko'rinib turganidek, ro'yxatga miqdoriy tushunchalar qatorida (ulush, nisbiy chastota) va sifat bilan bog'liq (shakllar, usullar, vositalar kabi) mezonlar kiritilgan. Bizning fikrimizcha, ushbu ikki mezon guruhini bir-biridan tadrijiy ajratib borish kerak. Bundan tashqari, yuqorida sanab o'tilgan har bir parametрни keyingi tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyati o'zaro bog'liq va bu holatda bog'lovchi bo'g'in so'zning morfo-semantik tuzilishidir. Mazmunning eng nozik tafsilotlari va tuslarini ifodalovchi aniq tuzilma so'zlarning yuqori motivatsiyasiga, ularning sezilarli semantik avtonomiyasiga, polisemiya va omonimiyaning nisbatan kam uchrashiga hamda leksik

ma'noninng yuqori aniqligiga olib keladi. Noaniq morfo-semantik tuzilish esa yuqorida sanab o'tilganlarga qarama-qarshi xususiyatlarni keltirib chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bally Ch. Linguistique générale et linguistique française. Paris: Leroux, 1932. - 410.
2. Bréale M. Essai de sémantique. Science des significations. 4me éd. Geneve: Slatkine reprints, 1976. 372. 1er éd. 1897.
3. Brinkmann F. Die Metaphern. Studien über den Geist der modernen Sprachen. Bonn: Marcus, 1878. Bd. 1. 600 ; Darmesteter A. La vie des mots étudiée dans leur signification. Paris: Libraire Ch. Delagrave, 1887. 212.
4. Hatzfeld H. Leitfaden der vergleichenden Bedeutungslehre. München: Hueber, 1928. 170.
5. Leisi E. Praxis der englischen Semantik. Heidelberg: Carl Winter Universitätsverlag, 1985. - 287.
6. Lyons J. Semantics. Cambridge: Cambridge univ. press, 1977. Vol. 1. - 372., Vol. 2: 373 - 897.: 16, Lüdi G. Zur Zerlegbarkeit von Wortbedeutungen. // Handbuch der Lexikologie. Ch. Schwarze, D. Wunderlich (Hrsg.). Königstein Ts.: Athenäum, 1985:64- 102., Апресян Ю.Д. Современные методы изучения значения и некоторые проблемы структурной лингвистики. // Проблемы структурной лингвистики. М., 1963: 102-149.
7. Reisig K. Vorlesungen über lateinische Sprachwissenschaft. Leipzig: Leinhold, 1839. 885.
8. Амирова Т.А., Ольховиков Б.А., Рождественский Ю.В. Очерки по истории лингвистики. М.: Глав.ред. вост.лит-ры, 1975. 560.
9. Покровский М.М. Избранные работы по языкознанию. М.: Изд-во АН СССР, 1959. 382.
10. Фрейденберг О.М. (ред.). Античные теории языка и стиля. Под общ. ред. О.М. Фрейденберг. М.-Л: ОГИЗ, 1936. 343.
11. Шафф А. Введение в семантику. М.: Изд-во иностр. лит-ры, 1963. - 376.